Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-sentabr dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 197 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 181 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 27 053,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 118,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 870,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 19 845,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,2%), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 5 337,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 133,1%) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati *(%da)*



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 945 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 932 tani tashkil qildi.

Viloyat bo‘yicha 2026- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 17 518,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 20,6% ga o‘sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 15 092,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 30,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,9 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd so‘m)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega tumanlar, Minbuloq (399,8 %), Uchqo‘rg‘on (182,2 %) va Yangiqo‘rg‘on (171,0%).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 342 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 332 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 23 783,9 mlrd so‘mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 125,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 75,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi –2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.